

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**  
**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI**  
**O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

**5141100-O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi**

**3-V kurs talabasi Ibragimova Shoirazatovna**

**“OYBEKNING «NAVOIY» ROMANINI TARIXIYLIK**

**PRINTSIPI ASOSIDA O`RGANISH”**

**mavzusidagi**

***R E F E R A T I***

# **“OYBEKNING «NAVOIY» ROMANINI TARIXIYLIK PRINTSIPI ASOSIDA O’RGANISH”**

## **REJA:**

### **I.Kirish**

### **II.Asosiy qism:**

- 1.Muso Toshmuhammad o’g’li Oybek ning hayoti va ijodi**
- 2. Oybekning «Navoiy» romanini tarixiylik printsipli asosida o’rganish**

### **III.Umumiy xulosalar**

### **IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

## KIRISH

Noyob lirik shoir, benazir nosir va atoqli olim sifatida dong taratgan Oybek XX asr o'zbek adabiyotining iftixoridir. Binobarin, mazkur adabiyot taraqqiyotini uning ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Oybekning kamalakdek tovlanuvchi, serjilo va qudratli she'riyatini, purviqor va hikmatli nasrini million-million kitobxonlar sevib o'qiyapti. Adibning «Qutlug' qon», «Navoiy» kabi shoh asarlari oltmishdan ortiq xorijiy tillarga tarjima etilgan.

Atrofdagilarda katta qiziqish uyg'otgan adib ijodiga bag'ishlab qator ilmiy maqola, adabiy-tanqidiy ocherk va risolalar yaratildi. Matyoqub Qo'shjonovning «Oybek mahorati» (1962), Nairn Karimovning «Oybek» kitoblari, shuningdek, «Oybekning ijodiy metodi va badiiy mahorati» (1985) nomli maqolalar to'plami alohida diqqatga sazovordir. Ularda yozuvchi asarlari tahlilga tortilib, badiiy, g'oyaviy, tematik xususiyatlari ko'p va keng ochib berilgan.

Yozuvchi Oybek ijodi haqida mustaqillik yillarida davr talablariga mos ravishda yangi tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Adib ijodi sog'lom fikr asosida tadqiq va tahlil etilib, Oybekning ulug'ligini tasdiqlovchi yangi-yangi ilmiy xulosalar chiqarilmoqda..

# **1.MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEKNING**

## **HAYOTI VA IJODI**

XX asr o'zbek adabiyoti tarixi Oybek timsolida eng ko'p va samarali ijod qilgan yozuvchini ko'radi. U XX asr o'zbek adabiyotining tinishi va rivojlanishiga eng ko'p Hissa qo'shgan shoir va adibdir. Asl ismi Muso mu'ammad Toshmu'ammad o'g'li bo'lgan. Oybek taxalusli bu ijodkor 1965 yilning 10 yanvarida Toshkentning Eski sha'arida hunarmand tuquvchi oilasida dunyoga keldi.

1911-17 yillarda Oybek o'zi dunyoga kelgan Gavkush ma'allasidagi eskicha maktabda savodini chiqaradi.

1921 yilda sho'ro maktabini tamomlab endigina Xadrada tashkil qilingan A.Navoiy nomli ta'lim-tarbiya texnikumiga o'qishga kirdi. Bu erda uning eskicha va yangi maktablarda olgan bilimlari qatoriga Pushkin, Lerontov va Tolstoy singari jahon tan olgan daxolarning sabog'i qo'shildi. Oybek davr talablariga "labbay" deb javob berib, zamonining ilg'or va etuk kishisi bo'lib etishish maqsadida 1925 yilda O'rta Osiyo davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakultetining iktisodiyot bo'limiga o'qishga kirdi. Oradan ikki yil o'tgach bilimini chuqurlashtirish, rus tilini puxtaroq o'rganish maqsadida o'qishini Leningrad (hozirgi Sankt -Peterbbur)

shahridagi Plexanov nomli xalq Xo`jaligi instito`tiga ko`chiradi. ammo bu shaharning sovuq va ro`tubatli ob-havosi Oybekning sog`ligiga yomon ta'sir qildi va o`qishni tugatishiga imkon bermadi. Natijada Oybek oliy ta'silni yana O`rta Osiyo davlat universitetining iqtisod fakultetiga ko`chirib, uni 1929-30 yillarda tugatdi.

Bu paytda Oybek bir necha to`plamlar e`lon qilib, shoir sifatida xiyla tanilib, qolgandi shuning uchun hech ikkilanmasdan ijodiy yulni tanladi. 1935-37 yillardan Oybek O`zbekiston fanlar komiteti qoshidagi Til va adabiyot institutiga ilmiy xodim bo`lib ishga o`tdi.

1942 yilda O`zbekiston fanlar Akademiyasi tashkil etilishi munosabati bilan Oybek Akademiklikka saylandi va shu yildan boshlab 1949 yilgacha O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining raisi bo`ldi Ayni payitda "Sharq yulduzi" jurnalining bosh mu`ariri lavozimini ham bajardi. Umrining oxirigacha shu jurnalda bosh mu`arrir bo`lib yurdi. Muso Toshmu`ammad o`g`li Oybek 1968 yilning 1-iyulida payg`ambar yoshida vafot etdi. Oybek avlodlariga katta adabiy meros qoldirdi. U shoir, prozazaik, dramaturg, adabyotshunos olim sifatida g`oyat samarali ijod qildi.

Oybekning birinchi she`riy to`plami "Tuyg`ular" nomi bilan 1962 yilda bosilib chiqqan. Bu to`plamga kirgan she`rlari

garchi badiiy jihatdan yuksak, tuyg`ular rang-barang va izchil berilgan bo`lsa ham, o`z paytida shuhrat topa olmadi.

Oybek 30 yillar ijodida va umuman o`zbek she'riyatining eng yaxshi namunalaridan biri sifatida tan olingan. "Na'matak" she'ri o`rta tao'im maktablari darsligidan o`rin olgan. Bu she'r shu qadar sexrli, jozibali, shu qadar tuyg`ularga boy, xisni shu kadar jo`shtiradiki, nazarimda, naomatak guli shoir ijodining timsoliga aylanib ketgandek taassurot qoldiradi. Uning o`z xidi, ko`rinishi, go`zalligi bor. O`zbekiston xalq shoiri R.Parfi bu she'r haqida "XX asr adabiyoti olamida Oybek deb atalgan mukaddas tog` bor. Uning osmonlariga buy chuzgan yuksak goyalarida kuyoshga savat-savat oq gul ko`targan naomataklar nafis chayqaladi" der ekan, Oybek she'riyatining ko`rimliligi, yoqimtoyligiga e'tiborni tortadi. Bu she'r ona tabiatning o`zligini chukur xis qilgan, undan zavklangan, "vikor-la ushshaygan koyalar", "vaxshiy toshlar"dan ham ajib bir go`zallik topa olgan, tarovat sezgan shaydoyi xassos insonning dil rozi, donishmand shoirning so`z bilan chizgan miniatyur manzarasidir: (she'rni yod o`qib beraman).

Bu she'r shaklan va mazmunan ni'oyatda yangi, so`zlar shu kadar joy-joyini topib ishlatganki, qofiyalash tarzi shu kadar o`ziga xoski "Naomatak" guyo she'r emas, oxangrabo

kuy, u guyo badiiy asar emas, balki nafosat, go`zallik mabudasi, xushbuy gul, shaffof chashma, o`ynoqi anxor, jozibali suratdir!

"Na'matak" she'ri tabiatni go`zal manzarasigina emas, ayni paytda shoir hayotining bir parchasiga aylanib ketganligi bilan ham kadrlidir.

Oybek o`zbek poeziyasi chukur falsafiy mushoxadalarga boy she'rlari bilan boyitdi. Ayni paytda bu falsafiy ma'no extirosli lirizm bilan sug`orilgan. Mana shu fazilatlar bilan Oybek lirikasining umri bokiyydir.

Ma'lumki; Oybek unlab dostonlar yaratgan shoir. Oybekdan 19 ta doston etib kelgan. Shundan Amir Temur haqidagi dostoni tugallanmay kolgan, "Ma'mud Torobiy" esa dramatik dostondir. Shunisi muximki, totalitar tuzumning ta'ziklariga qaramay, Oybek uz dostonlariga o`zbek xalqining ozodlik, mustaqillik uchun olib borgan kurashini, bu kurashlarda fidoyilik kursatgan milliy qahramonlarni, insoniy haq-xukuklarini tiklash uchun olib borgan kurash yullarini asos qilib oldi, xalqimizning ma'naviy-axlokiy yangilanishini ifodalashga eotibor berdi. Bu oliy maqsadni ifodalash uchun o`zining liro-epik asarlariga ham jismonan, ham ma'nan go`zal va uktam shaxslarni qahramon qilib oldi. SHoirning har bir dostonida xalqning ezgu va ajoyib fazilatlarini o`zida

mujassamlashtirigan go`zal va yokimtoy kishilar tasviriga duch kelamiz.

Oybekning umri oxirlarida yaratgan eng yaxshi dostonlaridan biri "Davrim jaro'ati" xalqaro mavzuga bag`shlangan. Bu doston 1965 yilda Xirosima va Nagasaki xalokatini 20 yilligi munosabati bilan yozilgan. Doston kuyidagi gazabnok misralar bilan boshlanadi:

Kalbimda davrimning jaro'ati bor,  
SHuning-chundir she'rim gazabdor vulkon.  
Jonimga bir kun tinchlik bo`lur yor,  
Bombani, zulmini unitar inson! ...

Tinchliksevarlik ru'ida bitilgan bu publiqistik dostonda shoir urush olovini yokuvchilarga karshi jahon xalqlarining nafratini ifodalaydi, tinchlik va dustlikni ulug'laydi.

## **2.OYBEKNING «NAVOIY» ROMANINI TARIXIYLIK PRINTSIPI ASOSIDA O'RGANISH**

Oybekning «Navoiy» (1944) romani ham o'zbek adabiyoti tarixida faxrli o'rin tutadi. Yuzaki qaraganda, Oybek urush yillarida uzoq o'tmish mavzusida «Navoiy» romanini yaratish bilan o'sha jangovar davr talablaridan uzoqlashganday ko'rinadi. Aslida esa bunday emas. Chunki Oybek o'tmish voqeligini aks ettirish, buyuk tarixiy shaxs Alisher Navoiy obrazini yaratish, uning Vatanga va xalqqa bo'lgan cheksiz muhabbatini tasvirlash asosida vatanparvarlik, insonparvarlik, qahramonlik va yomonlikka nafratni targ'ib qildiki, urush davri talablariga to'la mos kelar edi.

«Navoiy» tarixiy-biografik roman janrining nodir namunasidir.

Roman voqeasi 18 yoshli yigit — Alisher Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytishi bilan boshlanadi va Navoiy hayotining eng samarali va eng sermazmun davrlarini qamrab oladi. Asar voqeasi Navoiyning olimini aks ettirish bilan tugaydi. Demak, asarda Navoiy tarjimai holining asosiy bosqichlari hayot haqiqatiga mos holda yorqin tasvirlangan. Asarda Navoiyning olijanob fazilatlari, ajoyib xislatlari, Vatan, xalq va adabiyot oldidagi buyuk xizmatlari birin-ketin ochila

boradi. Navoiy obrazi romanda el va xalq uchun qayg'uruvchi, yurtning baxt-saodati haqida jon kuydiruvchi, adolat va haqqoniyat uchun astoydil intiluvchi ulug' siymo sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy o'z do'stlariga nasihat qilib: *«...har nechuk falokatni daf etmoqqa g'ayrat qilmoq kerak... Muborak Vatanni, el-ulusni salomatligi uchun fildokorlik ko'rsatmoq vazifamizdir. Sizdan tilagim shuki, barcha-birimizga, davlatga, yurtga vafo, sadoqat, muhabbat bilan bog'lanaylik. Vafo va muhabbat — ulug' qudratdir»*,— deydi.

Oybek romanda buyuk shoir obrazini yaratishda Navoiyning turkiy til va adabiyotga bo'lgan munosabati tasviridan ham o'rinli foydalangan. Romanda haqqoniy tasvirlanganidek, Navoiy o'z ona tilisi — turkiyni dil-dildan sevadi. Uning go'zal va boy til ekanini inkor qiluvchilarga qarshi dadil kurashadi. O'zbek tilining boyligini amalda namoyish qiluvchi ajoyib badiiy asarlar yaratadi. Oybek romanda Alisher Navoiy boshqa tillarni hech bir kamsitmaganligini to'g'ri ta'kidlaydi. Romanda Navoiy shoir Binoiyga e'tiroz bildirib: *«Biz fors tilining qudrat va ahamiyatini, u tildagi asarlarning husn va salobatini hech vaqt inkor etmadik. To'g'ri 'daklikdan boshlab fors tilida ham qalam surmoqdamiz. Ammo tilimizning afzalligi biz uchun ulug' haqiqatdir. Biz go'g'ri 'daklikda bu haqiqatning ishqini ko'nglimizga jo qilganmiz, o'z 'Iganimizcha bu ishqni saqlaymiz!*

*Shaharlarni, qishloqlarni, sahro va tog'larni to'ldirgan el-  
ulusimiz, urug'-aymog 'imiz bor, uning o 'z zavqi, fahmi-idroki  
bor. Biz elimizning zavqini, tabiatini nazarda tutib, uning o 'z  
tilida qalam suraylikki, uning ko 'nglifikr gullari bilan to 'lsin.  
Turkona soz bilan tar annum etaylikki, elning yuragi mavjga  
kelsin. So 'z gulshanidan o 'zga ellar qatorida bizning elimiz  
ham bahramand bo 'lsin», — deydi.*

Oybek romanda Jomiy bilan Navoiyni bir-biriga ustoz va shogird ekanini maftun bo'lib tasvirlaydi. Umr o'rtasidagi oddiy insoniy munosabatlar ham samimiyat bilan ifodalangan. Navoiy Marvga jo'nash oldidan xayrlashish niyatida Jomiy huzuriga tashrif buyuradi. *«Jomiy uni har vaqtdagi singari shavq bilan qarshiladi. Navoiy o 'tirgan hamon ulug' chol (Jomiy) muloyim tabassum qilib, o 'ziga xos mayinlik bilan: «Endi ko 'zlarimizni Marv tomonga intizor qilurmisiz?» — dedi.*

«Navoiy» romanida Husayn Boyqaro, Xadicha begim, Mo'min Mirzo, Darveshali, Binoiy, Majididdin singari tarixiy shaxslar obrazi ham berilgan. G'oyat ustalik bilan yaratilgan bu obrazlar bosh qahramon Navoiy xarakterini ochishda muhim o'rin tutadilar. Chunki adib bu obrazlar vositasida o'sha davr hayotini haqqoniy ko'rsatgan. Asarda podshoh Husayn Boyqaroning o'z o'g'li Badiuzzamonga qarshi jang qilishi,

nabirasi Mo'min Mirzoni qatl etish haqida farmon berishi, shahzodalarning bir-biriga qarshi qilich qayrashi, bir-biriga xiyonat qilishi singari fojiali voqealar, ziddiyatlar g'oyat ta'sirli qilib ifodalangan.

Romanda tarixiy shaxs obrazlari bilan birga, Sultonmurod, Dildor, Arslonqul, Zayniddin, To'g'onbek singari badiiy to'qima obrazlarning ham o'ziga munosib o'rni bor. Oybek bu obrazlar orqali o'sha davrdagi ma'lum ijtimoiy guruhlar hayotini umumlashtirib ko'rsatib bergan. Shuningdek, bu obrazlar vositasida bosh qahramon Navoiy xarakterini, uning fazilatlarini yanada yorqinroq ochgan.

«Navoiy» romanida XV asr hayoti uchun tipik bo'lgan xilma-xil voqea-hodisalar aks ettirilgan, rang-barang obrazlar yaratilgan. Hayot haqiqati ustalik bilan badiiy haqiqatga aylantirilgan. Bunda yozuvchi obraz yaratishda psixologik tahlildan, til imkoniyatlaridan, jumladan, har bir personajning o'ziga xos fe'l-atvorini va individual tilini berish san'atidan unumli foydalangan. Shunga ko'ra romandagi barcha obrazlar o'z xarakteri va individual tili e'tibori bilan bir-biridan ajralib, o'zaro farqlanib turadi.

Ma'lumki, badiiy asarda personaj nutqi singari muallif nutqi ham aniq va obrazli bo'lishi, milliy tarovat bilan bezangan, davr ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi shart. Asarda qaysi davr

hayoti tasvirlangan bo'lsa, o'sha davr kishilari nutqidagi til xususiyatlari ham aks etishi kerak. Bu jihatdan «Navoiy» romanining tili ibratlidir. «Navoiy» romani o'zbek tarixiy romanchiligi tilining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Asar tili o'tmish davrning jonli tilini yaratish namunalaridan biri bo'lib qoldi, unda besh yuz yil avval yashagan tarixiy qahramonlarning tili hozirgi kitobxonlarga tushunarli qilib qayta tiriltirildi. Oybek roman tili oldida turgan bu murakkab vazifani to'g'ri hal qildi. Yozuvchining muvaffaqiyati shunda bo'ldiki, u qahramonlar nutqi bilan muallif nutqi o'rtasiga keskin chegara qo'ymadi va tarixiy hamda zamonaviy nutqni bir-biriga uyg'unlashtirdi. U shaxslarning so'zlashuvida Navoiy asridagi adabiy til koloritini saqlash, ayrim grammatik va morfologik formalarni stillashtirish bilan birga, ularni o'zbek adabiy tilining hozirgi taraqqiy bosqichiga xos asosiy qoidalarga bo'ysundirdi, mumkin qadar hozirgi zamon kitobxonining tushunishiga yaqinlashtirdi. Ammo shunisi borki, muallif tilining personajlar tilidan tamoman uzilib qolishi va hozirgi kunning lug'at tarkibidagi yangiliklar bilan boyitilishi mumkin emas edi. Shuning uchun yozuvchi avtor tili bilan personajlar tili o'rtasidagi stilistik birlikni saqlashga harakat qildi, arabcha, tojikcha va hozirgi kunda iste'moldan chiqib ketgan arxaik so'zlarni o'rinli ishlatdi.

Xulosa qilib aytganda, «Navoiy» romani o'zbek romanchiligining ajoyib namunasi va juda katta yutug'idir. Bu roman jahondagi rus, ingliz, ukrain, nemis, belorus, qozoq, turkman, ozarbayjon, tojik, arab, fors, eston, latish va xitoy tillariga tarjima qilingan va hamma joyda kitobxonlarga manzur bo'lgan.

### **UMUMIY XULOSALAR**

"Navoiy" romani bilan Oybek Abdulla Qodiriydan so'ng ikkinchi tarixiy romanchilik oqimini boshlab berdi. Agar Qodiriy romanlarida tarixiy voqelik asar markaziga olib chiqilgan bo'lsa, Oybek romaniga tarixiy shaxs birinchi uringa ko'tarildi. Adib tarixiy voqealarni ana shu tarixiy shaxs faoliyati bilan chambarchas bog'lik 'olda aks ettiradi.

Realistik tarixiy romannning negizi xalqni tarixning etakchi kuchi sifatida ko'rsatishdan iboratdir. Romanda tarixiy jarayonning haqqoniy tasviri Navoiy obrazi orqali ifodalanadi. Asar Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytishi va Husayin Boyqaro saroyida ulkan lavozimga tayin etilishi haqidagi xabar bilan boshlanadi. Navoiy birinchi uchrashuvdayoq o'quvchiga iliq taasurot qoldiradi

Dastlab muhrdor, keyin bosh muhrdor, so'ng bosh vazir lavozimlarini egallagan Navoiy "Saroyda... ko'pgina xalqparvarlik siyosatini amalga oshirishga urindi. SHaharlarni

obod qildirdi, ariqlar qazdirdi, shifoxonalar, ko`tubxonalar qurdirdi.

Navoiy har qanday ishni el-yurtning manfaati nuqtai nazaridan bajardi. Masalan, "Ixlosiya " madrasasi, " SHifoiya" shifoxona qasri, bir necha hammomlar, ku`tubxonalar bunyod ettirdi, ilm va nazm ahliga katta homiylik qildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.T.  
“Ma'naviyat”. 2008.
- 2.Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. I jild. T., Fan, 1978.
- 3.Boboev.T. Adabiyotshunoslik asoslari. T.  
«O'zbekiston», 2002.
4. Salaev F.Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik  
atamalarining izohli so'zligi.T. Yangi asr avlodi. 2010.
5. DTS. “Til va adabiyot ta'limi” jurnali 2008-yil, 8-son.
- 6.To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T. “Yangi  
asr avlodi”. 2006.
- 7.Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy  
asoslari. T. “O'qituvshi” 1996.
8. XX asr asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T., 1999.
9. Oybek zamondoshlari xotirasida T., 1997
- 10.Oybek Mukammal asarlar to'plami XX tomlik T., 1975-85
11. <http://pedagog.uz/>
12. [www.o'zbek](http://www.o'zbek-adabiyoti.com) adabiyoti.com